Bugungi O‘ZBEKISTON

2025-yil 4-iyul,
13-son (63)
E-mail: bugungiuzbekistan@gmail.com

Ҳар бир давлат хизматчиси ҳар куни ўзининг меҳнати билан эгаллаб турган лавозимига лойиқлигини исботлаши керак.

ДУНЁНИ СОҒЛОМ ВА БИЛИМЛИ АВЛОД БОШҚАРАДИ

ёхуд бўш вақт хуш вақт бўлсин

Бугунги глобал дунёнинг бир мезони бор — ҳар қандай давлат ва миллат эртаси ёруғ ва шонли бўлиши учун фарзандларининг соғлиги ва билими учун қайғуриши керак. Куни кеча Президентимиз Шавкат Мирзиёев раислигида мактаб таълими тизимидаги ислоҳотлар самарадорлигини янада ошириш ҳамда келгусидаги устувор вазифалар юзасидан бўлиб ўтган видеоселектор йиғилишида ҳам айни мезон кенг муҳокама этилди.



“Янги Ўзбекистонни барпо этиш йўлида соғлом, билимли, теран фикрли, ватанпарвар ёшларни тарбиялаш учун барча шароитларни яратишимиз шарт ва зарур”, дея таъкидлади давлатимиз раҳбари. Мазкур йиғилишни кузатар эканмиз, биз педагоглар, устоз ва мураббийлар ўртага ташлаб ўтилган ҳар бир мавзу ва муаммо замиридаги асосий вазифалар залворини янада чуқурроқ англадик. Чиндан ҳам ҳозирги пайтда ўғил-қизларимиз кунига 8 соатгача вақтини телефонда ижтимоий тармоқларда ўтказаётгани барчамизни — ота-оналарни, муаллимларни, маҳалла аҳлини бирдек ўйлантириши, ечимларни биргаликда топишга ундаши керак.

Йиғилишда ёшларнинг бўш вақтини самарали ташкил этиш масалалари ҳам кўриб чиқилди. Ўғил-қизларимизнинг бўш вақтини мазмунли ташкил қилиш учун 900 га яқин театр, маданият марказлари ва концерт заллари, ҳудудларда 1,5 мингга яқин спорт майдончалари, 200 та оромгоҳ, 2 мингдан ортиқ туризм объектлари имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш зарурлиги таъкидланди. Ёзги оромгоҳларда “Ибрат фарзандлари”, “Қизлар академияси”, “Мутолаа” лойиҳалари билан қамраб олиниши ва 100 минглаб ўқувчи учун мактабларда “кундузги оромгоҳ” фаолияти йўлга қўйилиши ҳам ёшларнинг кундалик режими фойдали тартибга ўтишига ва ҳаётига ўзгача мазмун олиб киришига сабаб бўлиши аниқ.

Айни пайтда Чирчиқ давлат педагогика университети жамоаси ҳам ушбу йиғилишда белгиланган вазифалар асосида “Талабалар академияси”нинг янги иш режаси ва дастурини кўриб чиқмоқда. Асосий шиоримиз :

“ВАҚТИНГИЗ — ЭНГ ҚИММАТ БОЙЛИГИНГИЗДИР! УНИ МАҚСАДЛИ САРФЛАНГ, КЕЛАЖАГИНГИЗНИ ҲОЗИРДАН БОШЛАНГ!”

Энг аввало, ёшларимизнинг бўш вақтини унумли ўтказиш ва ҳам дам олиши ҳам бирор ҳунар ёхуд фаолият соҳаси билан машғул бўлиши учун асосий режа ишлаб чиқилди. Университетимизда 2023 йил январь ойидан бошлаб ректор F.Муҳамедов ташаббуси билан “Талабалар академияси” ўз фаолиятини бошлаган. Унинг асосий мақсади индивидуал таълим технологиялари асосида талаба ёшларнинг ўқув, илмий-тадқиқот ва тарбиявий жараёнларда чиниқтириш, иқтидорли талабаларни кашф этиш ва уларни бу фаолиятини қўллаб-қувватлашга асос яратишдан иборат. Бугунги кунда иқтидорли ва ташаббускор талабаларнинг ягона маълумотлар базаси шакллантирилиб, мунтазам янгиланиб борилмоқда. Талабалар, илмий раҳбарлар, соҳа мутахассислари, ота-оналар ва тюторлар ўртасидаги ҳамкорликни таъминлаш орқали етук кадрларни камолга етказиш муҳим вазифамиздир.

“ИЖОДДА НУР БЎЛМОҒИ ЛОЗИМ”

— Устоз шоиримиз Мирзо Кенжабек айтганидек, сўз санъати, ижод шавқи инсон қалбидан нур талаб қилади, — дейди “Мушоира” тўгараги раҳбари, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, таниқли шоира Гуландом Тоғаева. — Ижодда нур бўлмоғи лозим. Ижодкорнинг қалбида нур бўлса, бу мўъжиза унинг асарларига, ундан китобхоннинг қалбига ўтади. Гўзал ахлоқ, адолат, маърифат, тафаккур ва санъат нуридир ушбу муъжиза. Энг аввало, Янги Ўзбекистоннинг оловқалб ёшлари ўз қалами мўъжизалари билан она Ватанимиз тараққиётига хизмат қилиши керак.

Дастлаб академиядаги тадбирлар, ижодий учрашувлар ва илмий гурунглар бошланганида ҳаётларида ўзгача ёруғлик, маънавият тафти кириб келганини ёшларимиз ҳис қилдилар. Бу ерда турли хил тўгараклар фаолияти босқичма босқич йўлга қўйилиб борди. Талабалар университетимизда яратилган шароитлардан жуда хурсанд бўлишди ва бизнинг маърифий-маданий масканни “Ибрат академияси” деб номлай бошлашди.

Айниқса, ижод билан шуғулланадиган ёшларимиз учун яхши ижодий муҳит ташкил этилди. Дарҳақиқат, ҳар бир қўлига қалам олган ижодкор эътибор, рағбат ва меҳр истайди. Қолаверса, қаламини чархлаш учун сўз луғатини бойитиш ҳаракатида бўлади. Шоир ҳар бир шеърида, носир ҳар бир ҳикоя, қиссасида бошқалар қўлламаган кўплаб сўзларни ишлата билиши зарур. Бунинг учун ижодкор тарихни билиши, халқ оғзаки ижоди намуналаридан унумли фойдаланиши, маърифий адабиёт ва мумтоз шеърият сўз хазиналаридан бохабар бўлиши муҳимдир. Шу боис тўгарак раҳбари Гуландом Тоғаева ҳар бир ижодий учрашувга мумтоз шериятни, жаҳон адабиётини, тасаввуф манбаларини яхши биладиган таниқли устоз шоирлар ва ёзувчиларни таклиф қилади. Ҳар бир адабий учрашув ва муҳокамадан сўнгги сабоқларда эса ёш ижодкорларнинг дафтарлари янги шеърлар ва ҳикоялар билан бойиб боради.

Гуманитар фанлар факультети Ўзбек тили ва адабиёти йўналиши 4-босқич талабаси Нилуфар Тошпўлатованинг “Қалбим баёзи” ва Мактабгача таълим факультети 2-курс талабаси Ясмина Маъмуржон қизининг “Гулимсиз,она” шеърий тўпламлари устоз шоиранинг маслаҳатлари ва таҳрири остида чоп этилди. Шунингдек, Талабалар академияси қошида “Мушоира-PR — menedjer”тўгараги машғулотлари ҳам йўлга қўйилган. Ёш ижодкорлар ижоди “Қақнус” телеклуби ва республика матбуотида мунтазам ёритиб борилаётгани қувонарлидир.

Гуманитар фанлар факультети Ўзбек тили ва адабиёти йўналиши 3-курс талабаси Гулнора Ҳимматова Алишер Навоий номли стипендия соҳибаси бўлди. Ўзбек тили ва адабиёти йўналиши 2-курс талабаси Рахматуллаева Рухшона Актам қизи “Qualitiy Publication” илмий нашрлар маркази томонидан Самарқанд шаҳрида ташкил этилган “Таълимдаги муваффақиятлари учун” номли ижодий-илмий анжуманда қатнашиб кўкрак нишони ва махсус статуетка билан тақдирланди. Шунингдек, устозлар кўмагида ёшлар театр труппаси ҳам университетда ишлаб турибди. Яқинда ёшлар ижросидаги М.Беҳбудий қаламига мансуб “ Падаркуш” спектакли барчада катта таассурот қолдирди. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, университет ёшлари ичида спортни оммалаштириш борасида ҳам муҳим режалар асосида иш олиб борилмоқда. Бу ҳам келгусида ўз натижаларини бериши шубҳасиз.

АҚЛ МАШЪАЛИДАН ЁРУҒ ЛАҲЗАЛАР

Шу ўринда айтиб ўтишимиз лозимки, Гуманитар фанлар факультетида очилган Талабалар академияси ўзлигини қидираётган, ўз шахсини камолга етказишни истаган ёшлар учун ҳақиқий зиёхона бўлиб қолди. Талабалар бу ерни иккинчи уй деб айтишлари бежиз эмас.

— Дарсларимиз тугаши билан ушбу масканга, устозларимиз ҳузурига қанот ёзиб учиб келамиз, — дейди математика ва информатика факультети талабаси Шаҳризода Мўминова. — Қайси факультетда ўқишимиз муҳим эмас, устозларимиз ҳар бир талабани қайноқ меҳр ва эътибор билан кутиб олади. Мактабгача тарбия факультети талабаси Мадинабону Саловатова, география йўналиши талабаси Нигина Бобоева каби дугоналарим учун ҳам бу маърифий-маданий маскан севимли гўшага айланган. Кимдир турк тили ёки инглиз тилини ўрганиб тил сертификатини қўлга киритиш ниятида. Кимдир эса эски ўзбек ёзуви асосидаги қўлёзмаларни тадқиқ қилиб, мақолалар чоп этиш тараддудида.

Академиянинг методик хизматлар, илмий тадқиқотлар, рақамли таълим каби бўлимлари талабаларга замонавий таълим хизматларини тақдим этмоқда. Академия орқали талабаларнинг таълимга оид ҳар томонлама кўникмаларини ривожлантиришга эътибор қаратилаётгани муҳимдир. “Талабалар академияси” доирасида талабаларнинг шахсий ривожланишини таъминлаш ва индивидуал таълимни ташкил этиш мақсадида махсус бўлимлар ташкил қилинган. Методик хизмат бўлимида бўлажак ўқитувчиларнинг методик компетенцияларини ривожлантириш ва уларни “4+2” тартибидаги амалиётда самарали иштирок этишга тайёрлашга қаратилган. Бу бўлимда ўқувчиларга методик кўникмалар ва педагогик тажрибаларни чуқур ўргатиш ишлари амалга оширилади. Илмий-тадқиқот бўлимида эса талабаларнинг илмий лаёқатини ошириш, илмий изланишларга қизиқиш уйғотиш ва уларни фанлараро интеграцияга йўналтиришга хизмат қилади. Бўлим доирасида илмий ишланмалар, тадқиқот натижаларини таҳлил қилиш ва индивидуал ҳамда жамоавий лойиҳаларни амалга ошириш жараёни ҳам қизғин кечади. Бундай жараённи талабалар “Ақл машъалидан ёруғ лаҳзалар” деб аташади.

“РАҚАМЛИ ТАРИХ” ВА ЗАМОНАВИЙ МОДЕЛЛАР

Талаба-амалиётчиларни “кузатувчи — ассистент — модератор — фасилитатор — ментор” тартибидаги тизимли фаолиятга йўналтириш бўйича менторлик бўлимининг фаолиятини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим. Бу бўлим уларни касбий ривожланишда қадаммақадам йўлланма беришга қаратилган. Таълим жараёнларига рақамли технологиялар ва ресурсларни жорий этишга қаратилган “Рақамли тарих” бўлими эса, рақамли таълим платформаларидан самарали фойдаланиш, мультимедия воситалари билан ишлаш ва талабаларнинг мустақил таълим жараёнларини ташкил этишга хизмат қилади. Биламизки, тарих маълумотларни кенг қамровли контентига эга ахборот фани, шу сабабли бу фан доирасидаги маълумотларни эслаб қолиш муҳим саналади. Шу мақсадда академияда мнемоника бўлими фаолияти йўлга қўйилган. Бу бўлим тарих таълими жараёнларида саналар, далиллар, шахслар ва ҳодисаларни хотирада сақлаш ва уларни аниқ идрок этиш қобилиятини ривожлантиришга қаратилган. Талабаларнинг тарихий фактлар, саналар ва жараёнларни осон ёдлаш имконини берадиган технологиялардан фойдаланиши ортиб бормоқда. Мнемоника технологиялари таълим жараёнида энг муҳим бўлган фикрлаш ва ёдлаш қобилиятларини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Бўлим доирасидаги фаолият талабаларга мнемоника технологияларидан самарали фойдаланишни, мактаб амалиётларида самарали қўллашни ўргатади.

Ҳар бир талабадаги яширин истеъдодларни юзага чиқариш,унга сайқал бериш ва тарошлаш бу ердаги ҳар бир устознинг вазифаси саналади. Буни факультетда жорий этилган “тарих-санъат-маданият-графика” интеграцияси доирасида ташкил этилган кўргазмаларда кўришимиз мумкин. Бунда талабалар тарих ва санъат, маданият соҳаларини бирлаштирган ҳолда амалий лойиҳаларда иштирок этмоқда. Бу интеграция талабаларга фақат ўқув материалларини ўрганиш билан чекланиб қолмасдан, балки уларнинг ҳар бир соҳадаги назарий билимларини амалий даражада қўллаш имконини беради. Жумладан, Буюк Ипак йўлининг тарихий аҳамиятининг 3D моделларини яратиш, Афросиёб деворий суратларининг композицион тасвирларини ишлаб чиқиш, Регистон мажмуасининг 3D моделини яратиш каби бир қатор фанлараро интеграция асосидаги битирув малакавий ишлари нафақат таълим жараёнини бойитишга, балки талабаларнинг ижодий фикрлаш қобилиятини ҳам ривожлантиришга сабаб бўлмоқда. Талабаларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишлари ва яхши натижага эришишлари учун йўналишлар кесимида ҳамда факультет миқёсида ўттиздан ортиқ клуб ва тўгараклар фаолияти йўлга қўйилган. Факультетдаги Талабалар академияси кафедралар билан ҳам ҳамкорликда фаолият олиб боради.

Устозларимиз таъкидлаганидек, инсон тоза фитратда туғилади, кейин атрофидаги муҳит уни ё яхши томонга, ё ёмон томонга буради. Инсон нафсида жамланган кўплаб гўзал хислатларни юзага чиқариш учун одамзодга таълим зарур, гўзал эслатма зарур. Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ёзади:

“Равон йўллар қаршингизда турибди муштоқ”, —
Дерди бизга ҳарф ўргатган ёш бир муаллим.

Биз тарбиячи мураббийлар эса ёшларга “Сизнинг қаршингизда равон йўллар турибди”, демаймиз. Аксинча, уларни келажакнинг синовлари, ҳаёт сувларининг тўлқинлари ва гирдоблари олдида дадил бўлишга, глобал дунё зарбаларига қарши мардонавор туриб, она Ватан учун фидойи фарзанд бўлишга ундаймиз. Зеро, бўш вақт хуш вақтгина эмас, ўғил-қизларимизнинг асосий имкониятига, мазмунли умр саҳифаларига айлансин!

Самариддин ҚОРАЕВ,
Чирчиқ давлат педагогика университетининг Ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишлар бўйича 1-проректори

Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo‘lmasligi hammamizga ma’lum. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo‘layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo‘lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog‘liq.

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI AXBOROT XAVFLARI: ZAMONAVIY YOSHLARNING NIGOHIDA

Internet va ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda jadal rivojlanmoqda va yoshlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Bugungi kunda har bir talaba muayyan bir ijtimoiy tarmoqdan foydalanadi va kun davomida unga murojaat qiladi. Yoshlar bir vaqtning o‘zida bir nechta tarmoqlarda ro‘yxatdan o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lib, u yerda o‘zlari haqida ma’lumot joylashtirish, boshqa foydalanuvchilar haqida ma’lumotlarni ko‘rish, do‘stlari bilan muloqot qilish, yangi tanishuvlar qilish va boshqa shu kabi ishlar bilan shug‘ullanishlari mumkin. Bugungi kunda talabalar vaqtining katta qismini o‘tkazadigan ommabop ijtimoiy tarmoqlar qatoriga “VKontakte”, Facebook, Twitter va Instagram kiradi. Aynan shu saytlar yoshlarni ommaviy ravishda o‘ziga jalb etmoqda. Yoshlarning virtual hamjamiyatlarda ro‘yxatdan o‘tishlarining asosiy sabablaridan biri — bu shaxsiy muloqotdir. Zamonaviy yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqda xabar yozish, real hayotda muloqot qilishga qaraganda ancha oson va yoqimli. O‘z ishi bilan shug‘ullanish — pol yuvish, kitob o‘qish, yotoqda yotish va orasida suhbatdoshingdan xabar kelganini bildiradigan tovushli ogohnomaga qarab qo‘yish — ancha qulayroq hisoblanadi.

Virtual hamjamiyatlar yoshlar o‘rtasida axborot tarqatish va muloqot qilish uchun eng oson va ommabop resurslardan hisoblanadi. Chunki internet-hamjamiyatlarda turli mamlakatlardagi odamlar bir-biri bilan muloqot qilishi, ma’lumot va tajriba almashishi, yangiliklardan xabardor bo‘lishi, tanishishi, umumiy mavzularni muhokama qilishi va boshqa faoliyatlar bilan shug‘ullanishi mumkin. Biroq bu muammoning boshqa tomoni ham bor: internet-hamjamiyatlardagi faoliyat hajmi, mazmunli yoki mazmunsiz ma’lumotlar, foydalanuvchilarning psixologiyasi va umuman olganda virtual muhitdagi jarayonlar ijtimoiy xatarlarni keltirib chiqaradi. Bu xatarlar zamonaviy yosh shaxsga va uning ijtimoiy hayoti sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirning o‘zidayoq internet-muloqotda quyidagi xatarlar mavjud: sobiq suhbatdoshning noinsofligi, anonimlik, foydalanuvchi tarmoqda o‘zini boshqa odam sifatida ko‘rsatishi, real hayotda tanishish va muloqot qilishdan qo‘rqish, virtual muloqotga bog‘lanib qolish va hokazo.

Virtual hamjamiyatlardagi axborot muhitida yana shunday xatarlar ham uchraydi: sifatsiz va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar, ma’lumot muallifining bilimsizligi, soxta ma’lumotlar (feyklar) va robotlarning suhbatdosh sifatida chiqishi. Internet-hamjamiyatlarning jadal rivojlanishi tufayli ko‘plab rivojlangan davlatlar internetda axborot xavfsizligini tartibga soluvchi qonunlarni joriy qilmoqda. Axborot xavfsizligi — bu davlatning axborot resurslarini saqlash va shaxs hamda jamiyatning axborot muhitidagi qonuniy huquqlarini himoya qilish holatidir.

- virtual muloqotga bog‘lanib qolish (55,7%);
- real hayotda muloqot qilishdan qo‘rqish (35,6%);
- virtual fazoda shaxsiy chegaralarni to‘g‘ri tushunmaslik (34,8%);
- haqiqiy hayot faoliyatini virtual serfing bilan almashtirish (32,6%).

Axborot materiallarining taqdim etilishi nuqtayi nazaridan respondentlar eng ko‘p uchraydigan muammolar sifatida quyidagilarni keltirishgan:

- ma’lumotning yetarli darajada haqqoniy emasligi (70,8%);
- shaxsiy ma’lumotlarning oshkor etilishi (45,5%);
- jamiyatda dolzarb bo‘lgan mavzularni ochiq muhokama qilish (20%).

Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Demak, Ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumotlardan, shu jumladan shaxsiy ma’lumotlardan foydalanish madaniyati deganda, yuqorida keltirilgan salbiy holatlar va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik tushuniladi.

Unutmaslik kerakki, ma’lum bir shaxs tomonidan Internet tizimiga qo‘yiladigan ma’lumotlar boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan turli maqsadlarda ham foydalaniilishi mumkin. Shu jumladan ma’naviyat va ma’rifatga zid ham bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanilganda u erdagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga, sizni aldashmayotganligiga iqror bo‘lib, so‘ngra ma’lum bir qarorga kelish kerak.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “… biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz”. Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo‘hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o‘z qarmog‘iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma’naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o‘z xalqiga, yurtiga bo‘lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir.

G‘ofur XOLMO‘MINOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Инсон қадрини улуғлаш — юртимизда яшаётган ҳар бир одамнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш демакдир. Бу борада жамиятимиз асоси бўлган маҳалла ҳал қилувчи ўрин тутади.

Elektron kutubxonalar va zamonaviy texnologiyalarni kirib kelishi

Global raqamli inqilob hayotning barcha jabhalariga, xususan, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalari va elektron kutubxonalar ilmiy bilimlar va ta’lim resurslarini keng ommaga yetkazishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Farg‘ona vodiysi misolida zamonaviy texnologiyalar va elektron kutubxonalarning rivojlanishi, ulardan foydalanish imkoniyatlari hamda bu jarayonning ijtimoiy va madaniy jihatlari har tomonlama dolzarb jarayon hisoblanadi.

Elektron kutubxonalar raqamli formatdagi kitoblar, maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy hisobotlar va boshqa resurslarni saqlaydigan, foydalanuvchilarga taqdim etadigan onlayn platformalardir. An’anaviy kutubxonalardan farqli ravishda, elektron kutubxonalar quyidagi afzalliklarga ega.

Jumladan, elektron kutubxonalar geografik chegaralarni yo‘q qiladi, bu esa dunyoning istalgan nuqtasidan axborot olish imkonini beradi. Ma’lumotlarga, elektron kutubxonalarga tezkor kirish imkonini beradi, bu esa ilmiy tadqiqotlar uchun juda muhimdir. Resurslarni saqlash va himoya qilish ham qulay bo‘lib, raqamli formatdagi materiallar yo‘qolish xavfini kamaytiradi va uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi.

Elektron kutubxonalar ekologik jihatdan foydali bo‘lib, raqamli kitoblar va aqolalar qog‘oz sarfini kamaytirib, ekologiyani himoya qilishga xizmat qiladi. Elektron kutubxonalar bugungi kunda nafaqat ta’lim va ilm-fan, balki madaniyat, tadqiqot, biznes va boshqaruv sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda.

Farg‘ona vodiysi — Namangan, Andijon va Farg‘ona viloyatlarini qamrab olgan, O‘zbekistondagi aholi zich yashaydigan va ilmiy hamda madaniy markaz sifatida rivojlangan hududdir. So‘nggi yillarda vodiyning ilmiy muassasalari va ta’lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida kitob ilm-fan, madaniyat va insonlar tafakkurining rivojlanishiga xizmat qilib kelgan. Zamonlar osha kitoblar kishilarni tarbiyalashi, ularni aqliy rivojlantirishi natijasida kitoblarning ham shakl-shamoyillari o‘zgarib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab elektron kitoblar yaratila boshlangan. Endi butun bir binoni egallab turgan yozma axborot manbalari-kitoblar, gazeta, jurnal va boshqa hujjatlar birgina kompyuter yoki kichkina telefonda jamlangan. Bugungi kunda ulardan foydalanish samarasini oshirish maqsadida to‘la matnli ma’lumotlar bazasini yaratilmoqda.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan axborot-kutubxona muassasalarida 2011-yil 23-fevraldagi 2011-2015-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborot-kutubxona va axborot resurs xizmatini yanada sifatli takomillashtirishining chora-tadbirlari to‘g’risidagi, 2012-yil 20-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror hamda O‘zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab berilgan islohotlarni bajarib, elektron resurslar yaratish, mamlakatimizning yig‘ma elektron katalogini tashkil etish borasida bir qator ishlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi qoshidagi kutubxonalarda 2013-yildan boshlab virtual korporativ tizimini yaratishga kirishilib, O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli asosiy kutubxona va ilmiy-tekshirish institutlari kutubxonalarining virtual korporativ tizimi mavzusida loyiha bo‘yicha ish boshlandi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirish belgilandi: - ilmiy axborotlarning tizimi va turlarini, ilmiy tadqiqot institutlarida ilmiy ishlar uchun zarur jarayonlar va vositalarning tahlili va tasnifi; - bibliografik axborotlar, to‘liq matnli axborotlar uchun xalqaro standartlar talabi asosida ma‘lumotlar bazasi (matnli, video, audio) strukturasini ishlab chiqish; O‘zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi kutubxonalarini kerakli texnik va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash. Kutubxonachilarga elektron katalog yaratish, elektron kutubxona, kitobxonlarga zamonaviy axborot xizmati, virtual korporativ tarmoqda ishlash bo‘yicha maxsus trening kurslarini o‘tkazish; - elektron katalog va to‘liq matnli ilmiy-ta’limiy ma’lumotlar bazasini (dissertatsiyalar, avtoreferatlar, monografiyalar, ilmiy maqolalarni o‘z ichiga oladi) shakllantirish va ularni yig’ma elektron katalogga ulab qo‘yish; - yig‘ma elektron katalogga va ilmiy ta’limiy axborot ma’lumotlar bazasiga onlayn murojaatlarni taqdim qilish, virtual korporativ tizimi orqali kutubxonalarning tezkor ma’lumotlarini olishni ta’minlash; FA tizimidagi kutubxonalar xodimlariga elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, foydalanish, elektron katalog yaratish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish hamda samarali axborot almashish uchun va kitobxonlarga yuqori darajada xizmat ko‘rsatish uchun O‘zbekiston Respublikasi FA kutubxonalarining rivojlangan virtual korporativ tizimini O‘zbekiston Milliy kutubxonasining elektron kutubxonasiga ulashdan iborat masalalar hal etishga kirishildi.

Korporativ tarmoqda ishlash bir qator vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Bular: konsorsium ishtirokchilari o‘rtasida axborotlarni operativ almashish, yozuvlar va materiallarning qayta takrorlanishi oldini olish, yig‘ma elektron katalogni (YEK) shakllantirish. YEK tarmoqqa yagona portaldan kirish va JAR lardan samarali qidiruvni tashkil etishga imkon yaratadi.

So‘nggi paytlarda mamlakatimizda foydalanuvchilarning kutubxonalardan foydalanish darajasining pasayishi kuzatilayotgan edi, lekin horijiy mamlakatlar bilan o‘rnatilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma‘rifiy hamkorliklar bugungi kunda zamonaviy, yangi innovatsion va samarali texnologiyalarning kirib kelishi hamda horijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari mamlakatimizdagi barcha axborot kutubxona muassasalarida foydalanuvchilarga zamon talablari asosidagi interfaol xizmat turlaridan foydalanish sharoitlari yaratildi. Barcha turdagi ilmiy-texnik, badiiy adabiyotlarning elektron shakllari yaratilib, respublikadagi axborot-kutubxona markazlarining axborot resurslari jamlab, internet tarmog‘ida korporativ tarmoq yaratilgan. Bu tarmoq orqali respublikamizning barcha axborot-kutubxona markazlari bitta markaziy tarmoqqa bog‘lanib kutubxonalardagi barcha dabiyotlar haqidagi ma’lumotlar jamlanib, elektron kataloglar ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Korparativ tarmoqlarning rivojlanishi yurtimiz kitobxonlariga axborot-kutubxona markazlari xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini bermoqda. Shu tarzda kutubxonalardan foydalanuvchilarning soni ortmoqda.

Ayniqsa, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda yangi o‘qitish shakli — masofaviy o‘qitish yaratilishiga omil bo‘ldi. Masofaviy ta’limda talaba va o‘qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va ta’lim oluvchilar Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagida bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi.

Elekton masofaviy o‘qitish — eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir “2019-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” asosida bugungi kunda kadrlar masalasiga juda katta e’tibor qarailib, soha xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda ularga uzluksiz axborot-kutubxona ta’limini berish tizimi yaratilib zamonaviy axborot-kutubxona texnologiyalari asosida, axborot-kutubxona kadrlarini masofadan turib o‘qitish tizimini joriy qilinmoqda (masofaviy ta’lim axborot texnoligiyalaridan faydalangan holda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi bir-biri bilan masofa yoki vaqt oralig‘ida ajratilgan ta’lim turi).

Shuningdek, o‘qituvchi va assistentlarning xorijiy davlatlardagi yetakchi ilmiy tashkilotlarda (kutubxona fakultetlarida) stajirovka o‘tashi tashkil qilinib, axborot kutubxonachilik ishi bo‘yicha ilmiy maktablar rivojlantirilmoqda.

Kutubxonachilik ishi sohasida mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish asosida sohaga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarida “Kutubxona-axborot faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha qabul kvotalarini oshirish, axborot-kutubxona xodimlarining malakasini oshirish, tajriba almashish bo‘yicha xalqaro loyihalarda axborot-kutubxona muassasalarining ishtirokini kengaytirish va boshqa ishlar samaradorligi oshirilmoqda.

Omoniddin NASIRDINOV,
Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ЁШЛАР ҚУДРАТЛИ ДАВЛАТ ДАВОМЧИЛАРИДИР

Кейинги йилларда юртимизда ёш авлодга эътибор, уларнинг орзу-ҳавасларини рўёбга чиқариш, қобилият, истеъдодларини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш давлатимиз сиёсатининг доимий эътиборидан ўрин олди.

Давлатимиз раҳбарининг куни кеча Ёшлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини тинглаб, мамлакатимизда бу борадаги ишлар изчил давом этаётгани ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантиришга қаратилган муҳим ташаббуслар илгари сурилди. Бу нафақат шу тадбирда иштирок этган ёшлар, балки барча ҳамюртларимизни қувонтирди.

Мамлакатимизда ёшларга яратилаётган шароитлар аниқ натижалар бермоқда. Ўтган йили юртимиз ёшлари “ТОП-500”талик олийгоҳларга кириш бўйича Марказий Осиёда 1-ўринни эгаллади. Бугунги кунда 30 нафар йигит-қиз дунёдаги “ТОП-10”, 500 нафари “ТОП-100” ва 1 минг 500 нафари “ТОП-300”дан жой олган нуфузли университетларда таҳсил олмоқда.

Яқин йилларгача бундай натижаларни тасаввур қилиш қийин эди. Аввало, бу ёшларга яратилаётган имкониятлар самараси. Бундан фойдаланиб, катта марраларни кўзлаб интилаётган билимли, салоҳиятли ёшларимизнинг натижаси ва ютуқларининг яққол намунасидир.

Президентимиз таъкидлаганидек, юртдошларимиз санъат, спорт соҳаларида ҳам катта муваффақиятларга эришмоқда. Яқинда футбол бўйича Миллий терма жамоамиз тарихда илк бор жаҳон чемпионати йўлланмасини қўлга киритди. Бу ҳар биримиз учун катта фахр туйғусини шакллантиради.

Ҳақиқатан ҳам, бугунги ёшларининг дунёқараши, орзу истаклари, талаблари ҳам ўзгарган. Улар бугун замонавий фикрлаяпти, давр билан ҳамнафас яшаяпти. “Бир миллион дастурчи” лойиҳаси доирасида 325 минг ёшлар ўқитилган. Ўтган йили 150 мингдан зиёд йигит-қиз халқаро тил сертификатлари олган, бу — 2023 йилга нисбатан 2 баравар кўп.

Ушбу натижаларнинг ўзи ҳам Ўзбекистонда ахборот-коммуникация технологияларига қизиқиши баланд ва у билан шуғулланиш ниятидаги минглаб ёшлар етишиб чиқаётганини билдиради.

Давлатимизнинг ёшларга оид сиёсатини халқаро ҳамжамият ҳам кенг эътироф этмоқда. Ўзбекистон Бирлашган Миллатлар Ташкилоти “Ёшлар — 2030” стратегиясини жадал амалга ошираётган 10 та давлат қаторига кирди. Ёшлар тараққиёт индексида мамлакатимиз бу борада энг тез суръатлар билан ривожланаётган давлат, деб топилди.

Учрашувда ёшларга имкониятларни кенгайтиришга қаратилган муҳим ташаббуслар илгари сурилди. Эндиликда, миллий дастур асосида ҳар йили энг салоҳиятли 3 минг ўқувчи танланиб, Гарвард, Колумбия, Корнель каби дунёнинг нуфузли таълим даргоҳларига тайёрланади. Шундан камида 300 нафари эҳтиёжманд оила фарзандлари бўлади. Албатта, бу ўқимишли, теран фикрли ёшлар сафини кўпайтириш учун энг мақбул имкониятдир. Ўзига ишонган, дадил, жаҳон саҳнасида ўз овози ва сўзига эга, халқаро миқёсда ҳам юрт нуфузини юксалтиришга қодир ёшлар қатлами шаклланиши учун муҳимдир.

Таъкидлаш жоиз, Президентимизнинг жорий йил 28 июндаги Фармон ва қарорига мувофиқ, ёш авлодни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг давлат ва жамият ҳаётидаги фаоллигини ошириш мақсадида бир гуруҳ илғор йигит-қизлар “Келажак бунёдкори” медали ҳамда “Мард ўғлон” давлат мукофоти билан тақдирланган эди. Ёшлар кунида Тошкентдаги Халқаро конгресс марказида ана шу мукофотларни топшириш маросими ҳам бўлиб ўтди. Ушбу мукофотлар ёшларимизни катта ютуқларга, зафарларга чорлайди, руҳиятини, кайфиятини кўтаради.

Келгусида мамлакатимиз қудратини турли соҳаларда кўрсатадиган ёшларимизни ҳуқуқий маърифат йўналишларини ҳам пухта эгаллашлари бугунги давр талаби. Буни ёшларимиз ҳар қадамда ҳис этишмоқда.

Валишер КАРАМАНОВ,
Жиноят ишлари бўйича Олмазор туман судининг тергов судьяси

Жорий йилда Рақобат қўмитаси ва унинг ҳудудий бошқармаларига чиқинди ташиш хизмати бўйича фуқаролардан кўплаб норозилик мурожаатлари келиб тушди.

Аҳолидан асоссиз ундирилган маблағ қонуний тарзда қайтарилади

Сўнгги текширувлар давомида чиқинди ташиш хизмати учун аҳолидан ортиқча пул ундирилгани маълум бўлди. Жами 2 миллиард сўмга яқин маблағ ҳақида гап кетмоқда. Бу ҳолат кўплаб фуқароларда эътирозларга сабаб бўлди. Ҳозирда масъул идоралар томонидан ушбу маблағни қайтариш юзасидан аниқ чоралар кўрилмоқда.

Хусусан, Фарғона вилоятининг Қува туманидан тушган ўндан ортиқ мурожаатлар таҳлил қилинганда, хонадондан чиқинди ташиб кетилмаётгани, аҳолининг аниқ сонига мос равишда тўлов белгиланмаслиги ва хизматларнинг белгиланган графикда кўрсатилмаслиги ҳолатлари аниқланди. Мисол учун, 2 нафар фуқаро истиқомат қилаётган хонадондан чиқинди ташиб кетилмаган ва бундан ташқари, ҳисоб-китобда 5 киши учун ҳақ ундирилган.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 6 февралдаги қарори билан тасдиқланган қоидага асосан хизмат кўрсатувчи ташкилот маиший чиқиндиларни тўплаш ва олиб чиқиб кетиш бўйича хизматлар кўрсатишнинг тартиби ва тарифларининг ўзгарганлиги тўғрисида ушбу тарифлар кучга киришидан ўн беш кун аввал хизмат кўрсатувчи ташкилотнинг стендида, эълонлар тахтасида эълонлар осиш йўли билан, шунингдек, Оммавий ахборот воситалари орқали истеъмолчини хабардор қилишга мажбурлиги белгиланган.

Бироқ “Tozalik Sanitar Servis” МЧЖ томонидан янги тарифлар аҳолига ўз вақтида эълон қилинмаган ҳолда қўлланилганлиги туфайли 2024—2025 йиллар мобайнида Қува туман филиали томонидан юқори тариф қўлланилиши натижасида 264 миллион сўмдан ортиқ, Фарғона шаҳар филиали томонидан 17 миллион сўмга яқин маблағлар ортиқча ҳисобланганлиги аниқланди.

Шунингдек, Қува туманидаги Байналмилал, Жалаер, Ифтихор, Катта Қашқар, Мустақиллик, Намуна, Суфи МФЙларига Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 6 февралдаги 95-сонли қарор талаблари асосида хизмат кўрсатилмаганлиги натижасида 1,7 миллиард сўмдан зиёд ортиқча маблағ ҳисобланганлиги маълум бўлди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Фарғона вилоятида бугунги кунда чиқиндиларни ташиш хизматидан аҳолидан жами 2 миллиард сўмдан ортиқ ҳақ ундирилганлиги аломатлари мавжудлиги аниқланиб, асоссиз ундирилган маблағни истеъмолчиларга қайтариш бўйича кўрсатма берилган.

Зеро, фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқини ҳимоя қилиш — ҳар қандай хизмат кўрсатувчи ташкилотнинг биринчи вазифаси. Асоссиз ундирилган маблағларни қайтариш эса адолатни тиклаш йўлида муҳим қадамдир. Бу каби чоралар аҳолининг давлатга, тизимга бўлган ишончини мустаҳкамлайди.

Н.РАҲМОНОВА,
ЎзА